

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Karimova Shirin Zoxid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası PhD v.b.dotsenti

Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalar (FinTech)ni joriy etish jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. So'nggi yillarda bank tizimida raqamli transformatsiya, mobil to'lovlar, blokcheyn, sun'iy intellekt va bulut texnologiyalarining qo'llanilishi xizmatlar sifatini yaxshilab, mijozlar ishonchini oshirayotgani yoritiladi. Shuningdek, maqolada banklarda raqamli yechimlarni kengaytirish, mijozlar tajribasini optimallashtirish va FinTech platformalar bilan integratsiyani chuqurlashtirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy texnologiyalar, FinTech, raqamli transformatsiya, tijorat banklari, mobil banking, blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy inklyuziya, samaradorlik.

Аннотация

В данной статье анализируются процессы внедрения финансовых технологий (FinTech) в коммерческих банках Узбекистана и их экономическая эффективность. Отмечается, что в последние годы применение цифровой трансформации, мобильных платежей, блокчейна, искусственного интеллекта и облачных технологий в банковской системе способствует повышению качества услуг и росту доверия клиентов. В статье также приводятся предложения по расширению цифровых решений в банках, оптимизации клиентского опыта и углублению интеграции с FinTech-платформами.

Ключевые слова: финансовые технологии, FinTech, цифровая трансформация, коммерческие банки, мобильный банкинг, блокчейн, искусственный интеллект, цифровая экономика, финансовая инклюзия, эффективность.

Abstract

This article analyzes the implementation processes of financial technologies (FinTech) in commercial banks of Uzbekistan and their economic efficiency. In recent years, the adoption of digital transformation, mobile payments, blockchain, artificial intelligence, and cloud technologies in the banking system has improved service quality and increased customer trust. The article also presents recommendations for expanding digital solutions in banks, optimizing customer experience, and deepening integration with FinTech platforms.

Keywords: financial technologies, FinTech, digital transformation, commercial banks, mobile banking, blockchain, artificial intelligence, digital economy, financial inclusion, efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida bank tizimining modernizatsiyasi va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasining amaliy bosqichga o'tishi natijasida bank xizmatlarini avtomatlashtirish, mijozlarga onlayn xizmat ko'rsatish va raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, bank tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va FinTech kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda mamlakat bank sektorida mobil banking, internet banking, onlayn kreditlash, blokcheyn va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar jadal joriy etilmoqda. Xususan, Payme, Click, Apelsin, Uzun Bank va TBC Bank kabi raqamli moliyaviy platformalar orqali aholining keng qatlami uchun tezkor, xavfsiz va qulay to'lov xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarining kengayishi moliyaviy inklyuziyani oshirish, banklararo raqobatni kuchaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Biroq, bu jarayon bilan birga kiberxavfsizlik,

IT-infratuzilma, raqamli savodxonlik kabi masalalar ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holati, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bank tizimining raqamli transformatsiyasini chuqur o'rganish va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni¹, shuningdek, "Raqamli iqtisodiyot"ni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari asosida raqamli texnologiyalarni bank tizimida joriy etish huquqiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan. Ushbu transformatsiya orqali banklar fintech kompaniyalar bilan hamkorlikda ekotizimlar barpo etib, mijozlarga yo'naltirilgan, personalizatsiyalashgan xizmatlar ko'lamini kengaytirmoqda.

O'zbekiston bank tizimida zamonaviy moliya texnologiyalaridan foydalanish amaliyotida bo'lsa, oxirgi yillarda banklar faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari keng rivojlandi. Mobil banking va internet banking xizmatlari kengaytirildi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/112320>

Payme, Click, Apelsin kabi milliy fintech kompaniyalari bank tizimi bilan integratsiyalashgan. Huquqiy asos sifatida 'Raqamli O'zbekiston – 2030' strategiyasi, Prezident qarorlari va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari qabul qilingan. Shuningdek, Humo va Uzcard tizimlarining integratsiyasi, QR-to'lovlar va masofaviy kreditlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorligi holati bo'yicha quyidagi manbalar mavjud: raqamli texnologiyalar moliyaviy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatadi, onlayn banklashuv rivojlanishi va moliyaviy inklyuzivlik, raqamli bank innovatsiyalari va milliy bank tizimining rivojlanishi hamda Fintech innovatsiyalari va integratsiyasi bo'yicha o'ziga xos tomonlarini o'rganishgan. Xususan, L.M. Mirpulatova o'zining raqamli transformatsiya va bank samaradorligini oshiruvchi raqamli texnologiyalar tahlili mavzusiga bag'ishlangan ilmiy maqolasida bank tizimida raqamli transformatsiyalar tahlili samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan bir qancha asosiy texnologiyalar borasida keng qamrovli tahlillar olib borgan.¹

Bundan tashqari A.X. Boymaxmadov Yaqin kelajakda rivojlangan texnologiya kompaniyalari mavjud moliya-kredit institutlari o'rnini bosadigan vaziyat yuzaga kelishi mumkinmi, degan savol qator akademik adabiyotlarda muhokamalarga sabab bo'lmoqda deya ta'kidlaydi.²

S. Abdurahmonovning "Elektron banking va uning rivojlanish tendensiyalari" nomli ilmiy maqolasida elektron banking xizmatlari, internet-bank va mobil banking tizimlarining rivojlanishi bo'yicha tadqiqot olib boradi. U zamonaviy texnologiyalar bank tizimidagi xavfsizlikni oshirishini ta'kidlaydi,³

Raqamli bankchilikka o'tish bank marketingi va moliyani boshqarish modellari o'zgarayotganini anglatadi. Endilikda mijozlarni jalb qilish va ularni ushlab qolish hamda moliyaviy ko'rsatkichlar filiallarda amalga oshiriladigan sotuvlarga to'liq bog'liq emas. Bu o'zgarish raqamli bankchilikning mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, ularning qoniqishi va sadoqatiga, shuningdek, banklar uchun juda muhim bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatmoqda. Banklar uchun vazifa - ushbu mijoz ehtiyojlarini qondirish va foyda olishdir.⁴

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kompleks yondashuv asosida ilmiy tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, statistik kuzatuv, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv tahlil, shuningdek, amaliy iqtisodiy tahlil usullari orqali O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish samaradorligi o'rganildi. Tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillardagi hisobotlari, tijorat

¹ L.M. Mirpulatova "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy 'lektron jurnal 9-son 2024 -yil sentyabr. 130-138 betlar

² A.X. Boymaxmadov Pedagog respublika Ilmiy jurnali 7 – TOM 5 – SON / 2024 — yil / 15 — may www.bestpublication.org 1014 o'zbekiston bank tizimida raqamli banklarning rivojlanish istiqbollari

³ Abdurahmonov S. (2022). Bank xizmatlarini raqamlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi. Toshkent: Moliyachi nashriyoti

⁴ Асрарова М.Б. Цифровая трансформация банков в узбекистане / м.б. Асрарова // Международный научно-исследовательский журнал. — 2020. — №6 (96). — URL: [object Object] (Дата обращения 17.08.2025). — DOI: 10.23670/IRJ.2020.96.6.123

banklarining raqamli xizmatlar ko'rsatkichlari va xalqaro moliya institutlarining ma'lumotlaridan foydalanildi

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda raqamli xizmatlarni jadal rivojlantirmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunida mobil banking foydalanuvchilari soni 10,5 million nafarni tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 2,5 barobar ko'pdir. Raqamli to'lovlarning umumiy hajmi esa 322 trillion so'mni tashkil etdi. Bu jarayonda Payme, Click, Apelsin, Uzum Bank va TBC Bank kabi FinTech platformalarining roli muhim bo'ldi.

Quyidagi jadvalda 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarida raqamli xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi aks ettirilgan:

1-jadval

2020–2024 yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarida raqamli xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi¹

№	Ko'rsatkich	2020	2024	O'sish (%)
1.	Mobil banking foydalanuvchilari (mln)	4,2	10,5	150
2.	Onlayn kredit arizalari (mingta)	120	380	216
3.	Raqamli to'lov hajmi (trln so'm)	98	322	229
5.	Bank xizmatlari qamrovi (%)	45	78	73

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli moliyaviy xizmatlar hajmi 4 yil ichida o'rtacha 200% dan ortiq o'sdi. Bu holat, bir tomondan, aholining raqamli moliyaviy savodxonligi oshayotganini, ikkinchi tomondan esa banklar o'rtasidagi raqamli raqobatning kuchayganini ko'rsatadi.

2020–2024-yillar oralig'ida Asaka bank, Ipoteka bank, Agrobank va Hamkorbank singari yirik tijorat banklari o'z mobil ilovalari va internet banking platformalarini modernizatsiya qildilar. Masalan:

- Ipoteka bankda "MyIpoteka" mobil ilovasi orqali ipoteka to'lovlari, kommunal va xalqaro o'tkazmalar soni 2 barobarga oshgan;
- Agrobank "Agro24" ilovasi orqali fermer xo'jaliklariga masofaviy kreditlash imkonini yaratgan;
- TBC Bank esa O'zbekistonda birinchi bo'lib to'liq raqamli bank sifatida faoliyat yuritib, 1,5 milliondan ortiq foydalanuvchini jalb qilgan;
- Uzum Bank esa 2024-yilda elektron hamyon va onlayn kreditlash segmentida yetakchi o'ringa chiqdi.

Bundan tashqari, Payme, Click, Apelsin va boshqa to'lov tizimlari bank xizmatlarini to'liq raqamlashtirish jarayonida muhim o'rin tutmoqda. 2024-yilda ular orqali amalga oshirilgan to'lovlar umumiy tranzaksiyalarning 65 foizini tashkil etdi (Markaziy bank ma'lumotlari, 2024).

Biroq tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida hali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud:

¹ Muallif ishlanmasi

- ayrim banklarda IT-infratuzilma eskirgan, bu tizimlarning integratsiyasini sekinlashtiradi;
- kiberxavfsizlik tahdidlari hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda;
- FinTech startaplari bilan hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;
- ayrim hududlarda raqamli xizmatlardan foydalanish uchun internet infratuzilmasi zaif.

Shunga qaramay, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bank daromadlilikini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish (15–20% gacha) va mijozlar sonini kengaytirishda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasi onlayn bank xizmatlarini joriy etish yo'lida sezilarli natijalarga erishdi. Davlatga qarashli va xususiy banklarning barchasi mijozlarga istalgan joyda va istalgan vaqtda o'z moliyasini boshqarish imkonini beruvchi keng qamrovli raqamli platformalarni ishga tushirdi. Ushbu platformalar balansni tekshirish, mablag' o'tkazish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kredit olish uchun ariza topshirish va boshqa ko'plab xizmatlarni o'z ichiga oladi.¹

Internet tarmog'ining kengayib borishi va smartfonlardan foydalanish darajasining oshishi O'zbekistonda onlayn bank xizmatlari rivojining eng muhim omillaridan biri bo'ldi. Quyida 2022–2024-yillar davomida Google Play servisinde O'zbekiston banklarining mobil ilovalarini o'rnatishlar sonidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi jadval keltirilgan.

2-jadval

Banklar bo'yicha masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni (2022 va 2024-yil, may holatiga ko'ra)²

Bank/xizmat	2022-yil may	2024-yil may
Bosinq (mobil ilova)	5 000 000	10 000 000
Anorbank	1 000 000	5 000 000
TBC UZ	1 000 000	5 000 000
Agrobank	1 000 000	1 000 000
Ipoteka bank	1 000 000	1 000 000
Invest Finance Bank	500 000	1 000 000
Ipak Yo'li Banki	500 000	1 000 000
Xalq Banki	500 000	1 000 000
O'zmilliybank	500 000	1 000 000

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'atlari sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining muntazam o'sib borayotgani raqamli moliyaviy ekotizimning barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning boshida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning umumiy soni 43,5 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning iyul oyiga kelib bu ko'rsatkich 69 milliondan oshgan. Bu jarayon

¹ Shermatova, I. O. (2024). *Development of Online Banking in the Republic of Uzbekistan*. European Conference on Business, Law and Technology, 16, 1–10. <https://doi.org/10.61796/ECB.LT.v16.621>

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti – <https://cbu.uz/uz>

yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning raqamli bank mahsulotlariga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini, shuningdek, jismoniy shaxslar o'rtasida mobil va onlayn bank ilovalaridan foydalanishning ommalashganini ko'rsatadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni joriy etish jarayoni so'nggi yillarda bank tizimining raqamli transformatsiyasini tezlashtirdi. FinTech yechimlari orqali bank xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari yaxshilandi, tranzaksiyalar tezligi ortdi, xizmat ko'rsatish xarajatlari qisqardi va mijozlarga qulaylik darajasi sezilarli oshdi. 2020–2024-yillar davomida raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar sonining 2,5 barobarga o'sishi bu sohadagi islohotlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, FinTech integratsiyasi banklar uchun nafaqat raqamli qulaylik, balki iqtisodiy barqarorlik va innovatsion raqobatbardoshlikni ta'minlovchi strategik omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmaning eskirganligi, kiberxavfsizlik xatarlarining ortib borishi va raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi muammolar hamon dolzarbdir.

Mazkur tahlillarga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Banklararo raqamli integratsiyani kuchaytirish - yagona FinTech ekotizimi yaratish orqali to'lov tizimlari, mobil banking va onlayn kreditlash platformalarini o'zaro bog'lash.

2. Kiberxavfsizlik siyosatini mustahkamlash - xalqaro ISO/IEC standartlariga asoslangan xavfsizlik protokollarini joriy etish va doimiy monitoring tizimini shakllantirish.

3. Raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish - aholining keng qatlamlari uchun elektron to'lovlar, internet banking va mobil ilovalardan foydalanish bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish.

4. Mahalliy FinTech startaplarini qo'llab-quvvatlash - grantlar, inkubatsiya markazlari va soliq imtiyozlari orqali innovatsion loyihalarni rag'batlantirish.

5. Bank xodimlari malakasini oshirish - zamonaviy texnologiyalar va raqamli xizmatlar bilan ishlash bo'yicha muntazam o'quv seminarlarini yo'lga qo'yish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy texnologiyalarni yanada samarali joriy etish, bank tizimining barqarorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqamli rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yilgi moliyaviy barqarorlik hisobotlari. www.cbu.uz.

3. King, B. (2018). Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. Wiley Finance.

4. Skinner, C. (2022). Digital Bank 3.0: The Revolution of Banking and FinTech. Marshall Cavendish Business.
5. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
6. Begaliyeva M.A. (2025). E-biznesni rivojlanish strategiyasi. Golden Brain, 3(4), 79–83.
7. Azimov A.O. (2024). Raqamli iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarning o'rnini. Ekonomika i Sosium, 88–92.
8. Azizov A.S. (2021). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy xatarlarni kamaytirish. Toshkent.